SCIENCE HUB REVIEW
2026
Volume 1
Issue 3
www.sciencehubreview.uz
ILMIY ELEKTRON JURNAL

Autistik spektor buzilishlari, autizm F84

A.Mirsidikova

TAFU, katta o‘qituvchisi

SH.A.Nurmatova

TAFU Pedagogika fakulteti Psixologiya yo’nalishi 1-Bosqich talabasi

Annotatsiya

Autistik spektor buzilishlari (RAS,F84), autizm bu diagnoz hozirgi zamonda, har bir shaxs uchun qaysidir ma'noda ancha yaqin tushuncha. Global o'zgarishlar, taraqiyot erasida yashayotgan bo'lsakda, hanuzgacha xalq o'zidan boshqacharoq insonlardan cho'chiydi, yaqinlashishdan qo'rqadi. AQSH CDC — (Centers for Disease Control and Prevention) statistik ma'lumotlarga ko'ra bolalarda ABS aniqlangan holatlar 2000yil 1/150 bo'lgan bo'lsa, 2020yil bu ko'rsatkich 1/36 ni qayd etmoqda. Bu raqamlar, qolaversa mamlakatimiz siyosati ta'limda inkluziyani joriy etish va rivojlantirish, hamda shunday diagnozli oilalarga ko'rsatilayotgan ijtimoiy himoya orqali, har bir shaxsga, ularni insoniy bag'rikenglikka hamda ommaviy habardorlikka chorlamoqda. Farzandimda aynan shu diagnoz mavjudligi tufayli, mumkin bo'lgan darajada xalq habardorligini oshirishga o'z hissamni qo'shishni istayman. Mutaxasis sifatida esa farzandi o'zgacha onalar uchun, mahsus psixologik ko'mak berish va yangi pedagogik metodlar yaratish hayotiy maqsadlarimdan biri.

Kalit so‘zlar

Ras, autizm, sensor integratsiya, vestibulyar apparat (yarim doira naylari, otolitlar), chuqur sensor sezgilarga bo‘lgan ehtiyojlar, abilitatsiya.

Kirish

Autistik spektor buzilishlari - bu miya rivojlanishi va nerv tizimining ishlash mexanizmi neyrotipik insonlardan farq qiluvchi, ijtimoiy muloqoti, xulqi, qiziqishlari va sensor ma’lumotlarni qabul qilishida o‘ziga xosliklar bilan namoyon bo‘ladi. Autizm bu katta spektor, shu sabab turli shaxslarda, har xil namoyon bo'ladi. Kelib chiqish sabablari ham turlicha taxminlarni o’z ichiga oladi. Biroq aniq sababi hali tasdiqlanmagan. Ko’p hollarda homiladorlikdagi va tug’ulish jarayonidagi ishimiya(bolaga kislorod va zaruriy oziq moddlar yetishmasligi) sabablardan asosiylari sifatida tahlil qilinadi. Autizmning

muhim jihati uni erta aniqlab, ko'proq korreksiyalash. Agar autistik spektori buzulgan bolalar bilan sifatli va davomli shug'ullanilsa norma tipga yaqin holatga kelishi mumkin. Aksincha “Kattaroq bo'lsa o'tib ketadi" deb vaqt ketkazish, ona va bola hayotida jiddiy qiyinchiliklarni vujudga keltiradi. Zero ta’lim va tarbiyada har bir detal o'ta muhim, diagnozli bolalarda esa bu masuliyat, ikki barobar ortadi.

Mavzuning dolzarbligi: Eski dunyo qarash, sarqitlari, millat mentalitetida o'zgachalikni “Ayb” sanab, “Ayb"ni yashirishga undaydi. Yashiringan muammo esa kattalashadi va bari bir oshkor bo'ladi. Maqolamning asosiy maqsadi esa ommaga o'zgachalik bu e'tirof ekanligini yetkazish. Bundan tashqari vaziyatga to'g'ri va sog'lom munosabat bildirish, uni muammo pozitsiyasidan olib, bajarilishi yengil va oddiy, normal ma’suliyat qatoriga o'tkazadi. Bu diagnoz tasdiqlangach, oila qarshisida namoyon bo'ladigan, dastlabki bosqich bu ota onadagi o'ta yuqori darajadagi aybdorlik hisi. Bu bosqich butun oila psixikasini bir siltab tushiradi. O'sha bosqichdan qanchalik ekologik va maksimal tez o'tib olish, bolaning emotsional holati, korreksiyalash sifati, samarali abilitatsiyasining poydevoridir. Ayni o'sha damda har bir ota ona psixologik hizmatga muhtoj.

Asosiy qism

Autizm haqida fikr yuritilganda birinchilardan bo'lib Temple Grandinni qarashlarini muhim deb o'ylayman. Sababi uning o'zida bu diagnoz mavjud. U amerikalik olim, professor, ko'plab asarlar muallifi va hayvonlar xulq-atvori bo‘yicha mutaxassis. Temple Grandin aynan autistlar nomidan ular nima xohlashi, hulq atvoridagi xatti harakatlar va xususiyatlarni sabab oqibat modellarini ommaga ko'rsatib bergan. U autizmdagi sensor o'zgachalikni, chuqur sensor sezgilarga bo‘lgan ehtiyojlar mexanizmini ichkaridan tushuntirib bergan. Hozir eng mashhur korreksiya usullaridan biri hisoblangan sensor integratsiya T. Grandin ko'rsatgan o'sha ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilgan. U o'zidagi bu jarayonni boshqarish uchun maxsus aparat yasagan. Aparat yuqorida aytilgan, tanadagi chuqur bosimga bo'lgan ehtiyojni qondiradi. Nerv tizimi, teri va muskullar orqali qabul qilingan axborotda havfsiz hududda ekanligini anglagach tinchlanadi, emotsional holat mo'tadillashadi. Bu holat farzandimda ham ko'p kuzatiladi. Hayajon yuqorilashib ketsa qattiq bezovtalanadi. Biroq bunday ko'tarilish vaqtida ikki, besh daqiqa qattiq quchoqlab turilsa u bosim orqali tana chegaralarini his eta boshlaydi. Natijada bir necha daqiqa bolani o'z ritmiga tushiradi. Autizmning asosiy muammosi bu yetarli axborotga ega emas kishilar nazdida, bolaning xatti harakatlari, stimlari, voklizatsiya, sababsiz kulishi yoki yeg'lashi tashqaridan tarbiyasizlikga o'xshashida. Aslida bolaning gipperaktivligi bu uning vestibulyar aparatidagi o'zgarishlar tufayli tana holatini sezmayotgani, turli mantiqsiz harakatlar orqali, miya tana chegaralarini sezishga urinayotganini bildiradi. Bolaning turli balandliklardan qo'rqmasdan sakrashi bu yarim doira naylari va otolitlar o'z vazifasini to'liq bajarmayotgani tufayli, boladagi himoya mexanizmlariga axborot yetib bormayotganini ko'rsatadi. Bu erkalik yoki aqliy zaiflik emas, bu o'zgacha shakillanayotgan nerv tizimi natijasi.

Biroq bunday bolajonlarning intellektual qobiliyatlari juda yuqori. Bunday bolalar o'z ismiga reaksiya bildirmasligi mumkin, lekin qo'shiq yoki sher matnini bir qarashda eslab qolishi oddiy hol. Masalan 5 yoshlik o’g'lim (RAS,F84) hali mustaqil hojatga borishni bilmaydi, lekin quyosh sistemasidagi sayyoralar ketma ketligi, nomi, shakli, rangini juda yaxshi biladi. Hali “Qornim ochdi” deyishni bilmaydi, ovqat yeyishni xohlasa,

barmog'imdan ushlab sovutgich oldiga olib borib qo'lini qanotcha qiladi. Lekin ingliz tilida bemalol harflarni qo'shib o'qiydi va minggacha sanashni biladi. O'zbek tilida gapirsak deyarli e'tibor bermaydi. Biroq ingliz tilida aytilgan ishni, kayfiyati yaxshi bo'lsa bajaradi. Ota onalarga dalda sifatida shuni aytishni istaymanki, kuzatishlarim shuni ko'rsatadiki, har bir o'zgacha bolaning qandaydir noyob qobiliyati bor. Ota onalar o'z farzandlarini yaxshilab kuzatish orqali uning qaysi yo'nalishda qobiliyati borligini erta aniqlab, shu yo'nalishda ko'proq shug'ullanib bolaning vaqtini foydali taqsimlash, uning kelajagini yo'lga qo'yishi mumkin.

Hans Asperger avstriyalik pediatr va psixiatr. 1944-yilda u bolalardagi “autistik psixopatiya” deb nomlagan holatni tavsiflagan. U bunday bolalarning yuqorida aytib o'tganimday, sotsial muloqotdagi zaifligi yaqqol korinsada, ularda neyro tipik insonlardan ancha yuqori intelektual qobiliyati haqida ko'p asarlari bor. Shu sabab ham yuqori funksianal autizmni “asperger sindromi" bilan bog'lab tahlil qilinadi.

Autizmda korreksiyalash bu ota onaning yangi mutaxasisligi. Sababi kundalik hayotdagi deyarli har bir jarayon, bu bir mashg'ulot bo'la oladi. Korreksiyalashda boladagi har bir ko'nikma. Qayta va qayta takrorlash, tushuntirish, ko'rsatish, mustahkamlash va eslatib turish orqali shakillantirilib turiladi. Shu sabab bola bilan, ertayu kech birga vaqt o'tkazuvchi ona tezroq to'g'ri korreksiyalashni o'rgana boshlashi o'ta muhum jarayon.

Autizmda ko'p uchraydigan giperaktivlikning narigi ta'rafi bu gipoaktivlik. Bunda mushaklar bo'sh xatti harakatlar, lanj va jonsiz ko'rinadi. Buning sababi ham bolaga axborot yetishmasligi. Bola ko'p harakat qilmaydi sababi o'z tanasini yetarli sezmaydi. Bundan tashqari bu holatda “srart” tugmasi yaxshi ishlamaydi. Bolani qo'lidan tutsangiz yuradi. Bir necha soniyaga qo'yib yuborib chaqirsangiz ham to'xtab qolib, atrofga qarab qotib qoladi.

ABA (Applied Behavior Analysis) mashg’ulotlar atamasi hozir ota onalar orasida yetarlicha mashhur. Ole Ivar Lovaas (1927–2010) — autizmda xulq-atvor tahliliga asoslangan intervensiyalar bilan ishlagan. U amaliy xulq-atvor tahlili tamoyillaridan foydalanib, autizmli bolalarning kommunikatsiya, o‘rganish va moslashuvchan xatti-harakatlarini rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlar olib bordi. Uning qarashlari hozirgi ABA terapiyaning o'zagini tashkil etadi. ABA terapiya samaralari haqida ko'p yaxshi mulohazalar eshitganman. Biroq ayni bu sistema bizga u qadar mos kelmadi. O'glim gipoaktiv bo'lgani uchun o'z emotsiyalarini yorqin ko'rsata olmaydi. Bu mashg'ulotlar hususan menga qattiq qo'lroq tuyuldi. Balki giperaktiv bolalar uchun ayni muddao bo'lishi mumkin. Bizga О. И. Ефимов va В.Л. Ефимова ning DEKO usuli ko’proq ta’lim modeliga ko’ra to’g’ri keldi. Bu usul AQSH dagi “Floortime” metodiga yaqin. DEKO ga ko’ra bola bilan muloqatga yumshoqlik bilan kirishish. Turli pedagog uchun zaruriy vaziyatlar yaratib, bu to’siqlarni bola bilan birga bola pozitsiyasida yengish. Bolaga nimani qanday o’ynashn o’rgatish emas, balki bolani kuzatib uning emotsional holatiga moslashib, bosqichma bosqich qiziqtirish, yo’naltirish. Bolaga havfsiz hududda ekaniga ishonch hosil qilishiga yetarlicha vaqt berish. Bolaga liderlik pozitsiyasini berish orqali, muloqotga chaqirish. Natijada bola ochiladi, yumshaydi, o'zini namoyon qilishga cho'chimaydi. Hamda katta e'tibor yirik matorikaga qaratiladi. Minimal topshiriqlar berish, sababi asosiy maqsad bolada muloqotga ehtiyoj uyg'otish. Chunki ko'pincha nutq

bolada kechikishiga sabab dizarteriyada emas, balki bolada murojaat qilishga ehtiyoj yo'qligi bo'lishi mumkin.

Xulosa

Bu diagnoz keng jabhani o’z ichiga oladi va juda ko'p izlanish talab etadi. Chunki qarashlar, ilmiy ma'lumotlar har xil. Aslida ham shunday bo'lishi to'g'ri. Sababi autizm bu spektor, hamma bolada har xil tus oladi. Bu bolalar o'zgacha deb atalishiga ham shu sabab bo'lishi mumkin. Masalan autistik spektor ichida “ovqat tanlash” (избирательный аппетит) kuchli ta'sir doirasiga ega. Bu bola shunchaki u yoki bu mahsulotni rad etishi emas, bunda bola faqat bir necha, ba’zida bir dona mahsulotni istemol qiladi. Har qanday boshqa mahsulot qayt qilish refleksini uyg’otadi. Qiziq tarafi esa ba’zi autistlar umuman go’sht yemasligi, faqat suyuq ovqatlar yeyishi mumkin, ba'zilari esa aksincha. Masalan o’g’lim faqat qattiq taom yeya oladi. Agar taom yetarlicha qattiq bo’lmasa umuman yemaydi.

Hurmatli ota onalar farzandingiz o'zgachaligi, bu siz va yaqinlaringiz uchun yangicha hayot uslubini ochib beradi. Sizdan faqatgina mehr va harakat talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аспергер, Г. Аутистические психопаты в детском возрасте. — Вена, 1944.
2. Грандин, Т. Thinking in Pictures: My Life with Autism. — New York: Doubleday, 1995.
3. Грандин, Т., Панек, Р. The Autistic Brain: Thinking Across the Spectrum. — Boston: Houghton Mifflin Harcourt, 2013.
4. Википедия
5. Greenspan, S. I., Wieder, S. Engaging Autism: Using the Floortime Approach to Help Children Relate, Communicate, and Think. — Cambridge, MA: Da Capo Press, 2006.
6. Ефимов, О. И., Ефимова, В. Л. Зачем ребенку речь? Диалоги невролога и логопеда о развитии особых детей. — М.; СПб.: Диля, 2017. — 384 с.
7. Ефимов, О. И., Ефимова, В. Л. Вверх тормашками. Как вестибулярная система влияет на развитие ребенка. Диалоги невролога и логопеда. — М.; СПб.: Диля, 2019. — 320 с.
8. Centers for Disease Control and Prevention (CDC). Data and Statistics on Autism Spectrum Disorder: ADDM Network 2000–2020. — Atlanta: CDC.